

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

CHO'LPON HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATIDA RUHIYAT, BADIYAT MASALARI...

Ahmedova Pokiza Rustamovna

Nukus davlat pedagogika instiuti Turkiy tillar fakulteti talabasi

Annotatsiya. XX асрнинг 10-йилларида адабиёт майдонида тонг юлдузи ўлароқ кўринган ва шу сабабли Фитрат томонидан Чўлпон тахаллуси билан “тақдирланган” шоир ана шу авлод орасидан отилиб чиқиб, ўзбек шеъриятини миллий уйгониш қуролига айлантирибина қолмай, унинг тили ва услубини, шакл ва воситаларини янгилаш ҳам берди.

Kalit so'zlar. Cho'lpon she'riyat, xalq, ma'naviyat.

Cho'lpon ijodini: she'rlari, hikoyalari, romani va maqolalarini o'rganar ekanmiz, uning adabiyot haqida: “Endi ey qardoshlar! Adabiyot o'quylidir. Adiblar yetishdirayluk, “Adabiyot kechalari” yasayluk! Ruh, his, tuyg'u, fikr, ong va o'y olayluk, bilayluk. Agarda “bayoz” va bema'ni bir-ikki dona kitoblar ila qolsak, mahvu inqiroz bo'lurmiz. Yuragimiz kundan-kun toshdan ham qattig' bo'lur. Yurakni eritayluk, ruh berayluk, inqiroz bo'lmayluk... Hozir bizga birdan-bir lozim bo'lg'an narsa — adabiyot, adabiyot, adabiyot...” degan fikrlarini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmas. O'n olti yoshli Cho'lponning yonib-kuyib aytgan ushbu gaplaridan ham ma'lumki, Cho'lpon ne chog'liq xalq uchun, millat uchun qayg'urib yashaganligi. Qachonki xalq ma'rifatli, ilmli, o'z haq-huquqlarini biladigan, himoya qila oladigan, kerak bo'lsa, talab qiloladigan, ziyoli bo'lmas ekan, yurtni ozod qilish, mustaqillik uchun kurashish befoyda ekanligini, istiqlolga erishish uchun, avvalo, xalqni ma'rifatli qilib, nima uchun kurashyapti, kim uchun kurashyapti buni o'zi faxmlab yetmaguncha harakatlar natija bermasligini juda erta tushunib yetgan. Shuning uchun ham u har qanday janrdagi asarlarida xalqqa murojaat bilan chiqqandek bo'ladi.

Adib ijodidagi she'rlarda ham xalqni ogohlikka, birdamlikka chaqiradi. Cho'lpon she'rlarini o'qir ekanmiz, xuddiki so'qir insonga hassa tutgandek, ya'ni yo'lsiz yo'lni topolmayotgan insonga yo'l ko'rsatayotgandek bo'ladi. Uning she'rlarida, nafaqat she'rlari, balki boshqa janrdagi asarlarida ham xalqqa qarata: “Ey insonlar, ko'zingizni kattaroq oching, yon-atrofingizga qarang, nimalar bo'lyapti, bu g'aflat uyqusidan uyg'onning, kishanlardan xalos bo'lish vaqt keldi, boshingiz va qaddingizni ko'taring”, degandek bo'ladi. U yoniq, har vaqtida uyg'oq qalbli, har qanday vaziyat yoki holatga o'zining teran nigohi bilan boqib, xolisona fikr ifodalay oladigan insonlarning soni ko'payishidan umidvor yashaydi. Cho'lpon she'riyati haqida gap ketganda uning jasoratini e'tirof etmaslik mumkin emas. Nega deganda, Cho'lpon o'sha davrda turib, shu tuzumni qoralab, bemalol mustaqillik, erk, hurriyat, ozodlik haqida she'rlar yoza olgan. Bu hazilakam gap emas. Uncha-muncha insonning qo'lidan kelmaydi bu ish. Tuzumga qarshi qo'yilgan, ozodlik madh etilgan she'rlar yozish uchun yo insonning boshi ikkita bo'lishi kerak yoki yuragi. Bunday she'rlar, maqolalar, hikoyalar yozar ekan, e'lon qilar ekan, Cho'lpon boshini allaqachon kundaga qo'yib bo'lgan edi, menimcha.

U bunday ruhdagi asarlariga o'z ruhini oz-ozdan, sekin-asta joylab borgan. Balki shuning uchun ham she'rlarida Cho'lponning o'zgacha ovozi, kechimi, sadosi sezilib turadi. “Cho'lpon” deyilganda beixtiyor “shaxsiyati va she'riyati bir ijodkor” degan ta'rif yodimga tushadi. Darhaqiqat, Cho'lpon qanday ko'ringan, yashagan, ichidan qanday kechinma o'tkazgan bo'lsa, uni qog'ozga tushirgan deb o'ylayman. Bejirim, jimjimador, bo'yoqdor so'zlardan ko'pam foydalanavermagan va balki shuning uchun ham she'rlari sodda, ravon, o'qishlidir.

Abdulla Qodiriy adabiyotimiz tarixida yangi janr: romonchilikni boshlab bergan bo'lsa, Abdulhamid Cho'lpon she'riyatda o'z yo'li, o'z yo'nalishini yaratib bergan ijodkor deb bemalol ayta olamiz. Nabi Jaloliddin aytganidek: “Agar Olloh imkon bersa, jur'atingiz yetsa,

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON,2024

Oybekdan, G'afur G'ulomdan (darvoqe, Usmon Nosirdan), Erkin Vohidovdan, Abdulla Oripovdan, Rauf Parfidan, Omon Matjondan, Shavkat Rahmondan, Usmon Azimdan, Xurshid Davrondan, hatto Ulug'bek Hamdamdan (she'r yozmagan ustozlar Erkin A'zam, Shukur Xolmirzayevdan ham) va hokazolardan so'rab ko'ring: XX asr o'zbek adabiyotining eng zo'r shoiri va yozuvchisi kim deb. Ular bir xil javob beradilar, u - Cho'lpon! Chunki sanalgan ustozlarning hammalari Cho'lpon (shakl, tajriba, intilish, yangiliklar)ning yengidan chiqqan". Nega endi hammasi Cho'lponning yengidan chiqqan? Yengda o'zi nima bo'ladi? Qo'l. Chunki ularning barchasi she'riyatda ham, nasrda ham (to'laligicha emas albatta, qaysidir jihat bilan) Cho'lpon qo'lini mahkam turib, unga ergashishgan. Cho'lponni o'ziga ustoz deb bilishgan.

Cho'lpon an'anasi davom ettirishgan. Shu o'rinda Nabi Jaloliddinning: "XX asr o'zbek adabiyotining eng zo'r shoiri va yozuvchisi—Cho'lpon", degan fikriga birozgina e'tirozim bor. Negaki, bu jumlada faqat "shoiri" deganida edi, bunga hech qanday e'tiroz ham, shubha ham yo'q edi, biroq "yozuvchisi" degan o'rniga biroz to'xtalmoqchiman. To'g'ri, Cho'lponning "Kecha" romani ham saviyasi, yozilishi, uslubi juda chiroyli, barkamol asar. O'z davri uchun ham, bugun uchun ham. Biroq o'sha davrda, ya'ni Cho'lpon bilan yonma-yon, zamondosh, maslakdosh, "romanchiligimiz otasi" deya e'tirof etilgan Abdulla Qodiriy ham bor edi. Bu joyda balki men xato yondoshayotgandirman. Bilmadim. Lekin Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar"i "Kecha" romanidan (nisbatan albatta) birozgina peshqadamroq har jihatdan. Ammo tan olishimiz kerak "Kecha" ham o'sha davr uchun katta hodisa edi.

Bundan tashqari, hikoyalarda ham o'zgacha mavzu, o'zgacha taqdir egalarini olib chiqqan. Nazmda yangi uslub yaratgan Cho'lpon nasrda ham o'z usuliga ega bo'lган. Balki shuning uchun ham Nabi Jaloliddin "eng zo'r yozuvchi" deb ham e'tirof etgandir. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganidek: "Cho'lpon asarlarini ham insonni tong yulduzi kabi uyg'onishga da'vat etadi". Darhaqiqat, Cho'lpon asarlarini o'qir ekansiz o'zingizda o'zgacha hissiyotlar kechayotganini sezib turasiz.

"Har bir asar ichida ma'lum darajada muallif o'zi bo'ladi", degan fikr juda ko'p bora takrorlanadi. Darhaqiqat, Qodiriy asarlarini o'qir ekansiz, o'zingizda beixtiyor so'zlashda, tinglashda, fikr bildirishda, yurish-u turishda, umuman, har jihatda qandaydir o'zgacha odob, tavoze' shakllanib borayotganini his etib turasiz, Cho'lpon asarlarini o'qiyotganda esa(bu o'rinda "Kecha" romani nazarda tutilyapti), o'zingizda qandaydir bir kuch, shijoat, isyonkorona ruh, yengib bo'lmas iroda paydo bo'lgandek bo'ladi. Shu o'rinda sevimli adibimiz O'tkir Hoshimovning: "Har qanday badiiy asarda ham ma'lum ma'noda muallif tarjimayı holining bir bo'lagi bo'ladi. Sababi yozuvchi o'z asariga qalbini bag'ishlaydi", degan fikrlari yodga tushadi. Haqiqatan ham, har kim o'z taqdiri, o'z yo'nalishi, o'z so'ziga ega. Shuning uchun ham millionlab bir-biriga o'xshamas taqdirlar, bir-birini takrorlamas asarlar bordir.

Cho'lpon ijodini o'rganib borar ekanmiz, uning dovyurakligiga, haq so'zni hayiqmay ayta olishiga, o'jar, bukilmas irodasiga tasannolar aytamiz. Biz hali ham Cho'lpon ijodini to'la-to'kis tushunib yetganimiz yo'q deb o'ylayman. Negaki, uning ijodida biz e'tibor bermagan yo berilgan bo'lsa-da, to'liq yoritib berilmagan o'rinlar ko'p. Biroq Cho'lpon ijodini xolisona tadqiq etish, imkon darajada mukammalroq o'rganishga harakatlar davom etmoqda. Yangi o'sib kelayotgan avlodning mustaqillikni, istiqlolni yurakdan his etishi, qo'rmas, dovyurak, jasoratli bo'lishi uchun Cho'lpon haqida ko'proq gapishimiz, uning nomini ulug'lashimiz kerak. Ana shunda o'sib kelayotgan yosh avlod jasorat hech qachon unutilmasligiga amin bo'ladir.

Bugungi kun yoshlari uchun Cho'lponning faqatgina asarlari emas, balki hayot yo'li ham katta ibrat, buyuk maktabdir. Bugungi kun istiqlol yoshlari Cho'lpon orzu qilgan, biroq yetisha olmagan mustaqillik davrida yashamoqdalar. Ular Cho'lponning faqatgina o'yayollarida bo'lgan bu istiqlol davrining qadriga yetib, Cho'lponning armonlarini ro'yobga chiqarib, o'qib-o'rganib, shu yurt ozodligi, tinchligi va kelajagi uchun o'z hissalarini qo'shib yashamoqlari shart. Jadidchilik davri namoyandalari bo'lgan Cho'lpon, Fitrat, Elbek, Botu,

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-IYUN

ANDIJON, 2024

Qodiriy – barcha-barchasi hech qachon o‘lgan emas, ular nomlari mangu barhayot. Bu nomlar har birimizning yuraklarimizda, qalblarimizda yashamoqda.

Cho‘lpon tabiat go‘zalligining qadriga etish, unga oqilona va odilona munosabatda bo‘lish qanchalik zarur bo‘lsa, millatlar va xalqlar o‘rtasidagi munosabatda ham noziklik, adolat bo‘lishini istaydi. Shubhasiz, uning bu fikrlari 20-yillarda osmondan tarasha tushganday tuyulgan edi. «Ko‘gard vodiysi» maqolasida Jalolobodga chiqqan sayohat taassurotlarida ijtimoiy, demografik muammolarni ham o‘rtaga tashlaydi. Mutafakkir ta‘biricha, Jalolobod qishlog‘i yoki shaharchasining kun chiqish biqinida baland adirlar bor. O‘shalarning bir chekkasidan chiqib yotgan «dardga davo» buloqlar, burungi chor hukumatining diqqatini yaxshigina jalg qilgan edi. Chor hukumati u joyni yaxshi va mukammal bir sayfiyya (kurort) ga aylantirib, shimol va g‘arbning olifta boy bolalari uchun ham shifo manbai, ham fahsh uyasi qilmoqchi edi. «Vatanparvarlik», «millatchilik» kabi so‘zlarga boshqacha ma’nolar berildi. Ayniqsa, «Qiz buloq» degan buloqning yonida turib Ko‘gard vodiysiga nazar solsak, unda qator chizilib ketgan o‘rus qishloqlarini ko‘rsak... maqolaning mafkumi yana ham ochiq fahmlanadir.

Chor hukumatining muhojarat (ko‘chirish) idorasi chinakam iqtidorli kishilar qo‘liga topshirilgan edi. Bu atrofda, fikrimcha, Shu Jalolobod, Ko‘gard vodiysidan unumlik tuproq bo‘lmasa kerak. Shu joyga eng katta muhojir qishloqlari solingan, eng qora muhojirlar o‘rnatilgan... o‘sha muhojir qishloqlarning o‘rtasida yarqirab ko‘ringan haybatlik butxona qubbalar... chor hukumatining niyat va irodasini ko‘rsatib turadi...» Cho‘lponning 1924 yili yozgan bu so‘zları nainki o‘zining jasoratligi bilan, ayni choqda, bashoratligi bilan ham kishini hayratga soladi. Chor hukumatining chekka o‘lkalarga o‘ylamay-netmay xalqlarni ko‘chirishi, bir tomondan, mustamlakachilik siyosatining yorqin ifodasi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, hozirgi payt millatlararo nizolarning kelib chiqishiga ham sabablardan biri sifatida qaralmog‘i kerak.

Cho‘lpon dunyoqarashi insoniyat ilg‘or tafakkuri ta’sirida, jonajon o‘lka tabiatini va qishloqlari, turmush tarzi, hayoti va faoliyati ta’sirida, o‘z davri ijtimoiy, siyosiy, falsafiy falsafiy qarashlarining gumanistik va vatanparvarlik irmoqlari ta’sirida shalkllandi va rivojlandi. Cho‘lpon hech qachon tor va cheklangan holda fikr yuritmagan. U keng va ochiq tafakkurni, erkin va ozod milliy yuksalishni, ma’rifat va madaniyat orqali hayotni go‘zallashtirishni orzu qildi, Shu yo‘lda tinmay faoliyat ko‘rsatib, ijod qildi. Cho‘lpon o‘z sayohatnomasini quyidagi so‘zlar bilan yakunlaydi: «Shu kalta sayohatning natijasida ko‘p narsalarni ko‘rdik. 5-6 yillik buzg‘unlik tarixini joy-joyida varaqlab, o‘qib ko‘rdik. Buzg‘unlik haqiqatdan juda kuchlik. Buzg‘unlikni yo‘q qilib, yiqilg‘onni tiklash uchun juda zo‘r kuchlar, tunganmas g‘ayratlarga ehtiyoj bor. Yurt – buzulg‘on. Lokin uning munbat tuprog‘i ko‘chib ketgani yo‘q, joyida. U tuproq orqali yana yurtning yashnatmak siz va bizning qo‘limizda, hurmatli o‘quguvchilar»2.

Shaxsga sig‘inish, sinfiy kurash g‘oyalari avj olgan bir davrda «Millatchi» va «xalq dushmani» degan siyosiy tamg‘alar yopishtirilgan . Cho‘lpon she“riyatida lirik qahramonning nozik, kamtarin va ulug‘vor ruhiy evrilib holatlari aks etadi. Uzoq-uzoqlardagi yulduzlar, mungli nur bag‘rida to‘lg‘ongan oy, tong sabosining sirli shivirlashi, bahor elchilari – ko‘miko‘k maysalarining mastona-mastona tebranishi va hokazolar hayotiy, ayni choqda, ilohiy go‘zallik ramzi bo‘lib tasvirlanadi. Lirik qahramon ulug‘vor tuyg‘ularga burkangan inson qiyofasida gavdalanadi. Xayoliy olamdagи hayotiy go‘zallikni ko‘rish, oddiylikda ilohiy bir ulug‘vorlikni sezish, tuyg‘ular samimiyatidagi tantilik va hayot nas“asidan erkalanish ohanglari Cho‘lpon poeziyasi xalqchilligini belgilovchi asosiy g‘oyaviy-falsafiy leytmotivga aylanadi.

References

1. Sharafiddinov Ozod. Cho‘lponni anglash, — T.: «Yozuvchi», 1994, 46-bet.
2. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’limmatakablarining 11-sinfi uchun darslik. — T.: «O‘qituvchi», 2004,